



BOSHLANG‘ICH SINFLARDA NAZARIY MA’LUMOTGA QIZIQISH UYG‘OTISH

Pirniyazova Sh.O.

Ajiniyoz nomidagi NDPI mustaqil izlanuvchisi

Tayanch so‘zlar: darsliklarda til birliklarini o‘rganish bilan bog‘liq materiallar, dars bosqichlari, boshlang‘ich sinflarda nazariy ma’lumotga qiziqish uyg‘otish, matn tahlili jarayoni, o‘qituvchi.

Ключевые слова: материалы, связанные с изучением языковых единиц в учебниках, этапы урока, вызывающие интерес к теоретической информации в младших классах, процесс анализа текста, учитель.

Key words: materials related to the study of language units in textbooks, lesson stages that arouse interest in theoretical information in primary grades, the process of text analysis, teacher.

Bugungi kunda boshlang‘ich 1–3-sinf «Ana tili hám oqıw sawatlılıǵı» darsliklarida, 4-sinf «Ana tili» darsligida grammatika va imlo yuzasidan berilgan elementar nazariy ma’lumotlar va ularni mustahkamlashga qaratilgan ish turlari va mashqlar doirasida tashkil etiladi. Ushbu darslarning umumiy maqsadi ham, bosqichlari bilan bog‘liq xususiy maqsadlari ham ulardagi materiallarning ahamiyati nuqtai nazaridan belgilanadi. Bunda har bir bosqich o‘qituvchining kirish so‘zi bilan boshlanib, til hodisasini anglatish, faollashtirish bo‘yicha aniq maqsad va vazifalar qo‘yish, o‘quvchilarda motiv paydo qilish, ish oxirida yakunlash imkoniyatlari ham hisobga olinadi.

Ushbu darsliklarda til birliklarini o‘rganish bilan bog‘liq materiallar mazmun-mundarijasiga ko‘ra quyidagi dars bosqichlarini (komponentlari, asosiy tarkibiy elementlarini) ajratish mumkin:

matn tahlili jarayonida til birligiga doir og‘zaki ravishda tushuncha berish va ba‘zan darslikdagi nazariy ma’lumot bilan tanishtirish;

berilgan mashq yoki topshiriqni og‘zaki yohud yozma bajarish (dastlabki ko‘nikma hosil qilish);

nazariy ma’lumot bilan tanishish va mashq bajarish;

o‘quvchilarning savodxonligini oshirishga doir og‘zaki va yozma ravishda leksik-grammatik mashq; chunonchi, so‘z shaklini hosil qilish, gap tuzish; yozma ishda yo‘l qo‘yilgan xatolar ustida ishlash; baho qo‘yish (ball berish).

Matn tahlili jarayonida rejada ko‘rsatilgan til birligiga doir og‘zaki ravishda tushuncha berish va ba‘zan nazariy ma‘lumot bilan tanishtirish qay mazmunda bo‘lishi kerakligi to‘lig‘icha o‘qituvchi ixtiyorida. Darsliklarda birinchi bosqich mavjud bo‘lgan paragraflar ko‘p. Bizningcha, ushbu xildagi bosqichlar yangi til hodisasini tadqiq etishga yaqin turadi. Tadqiq etish (izlanish) o‘quvchilarning o‘quv-biluv faoliyatida muhim ahamiyatga ega.

Darsliklardagi aksariyat nazariy ma‘lumotlar alohida bosqich sifatida ajratishga undovchi bir-ikki mashq (topshiriq) bilan ta‘minlangan. Mashqlar ayrim hollarda nazariy ma‘lumotdan oldin, aksariyat holatlarda keyin joylashtirilgan. Nazariy ma‘lumotdan oldin kelgan mashq til birligini kuzatish, tadqiq etish, tahlil qilish, umumlashtirish va xulosa chiqarish uchun, ya‘ni o‘quvchilarning o‘qituvchi rahbarligida mustaqil izlanishlari uchun mo‘ljallanadi. Bu 1990 yillarda metodik adabiyotlarda ko‘p gapirilgan induktiv usulni (metodni) ifoda etadi. Induktiv munosabati bilan tadqiq etish (izlanish) metodi ham tavsiya etila boshlandi. Bu borada boshlang‘ich sinflar bo‘yicha tadqiqot olib borgan metodist olim S.S.Tajbenovanning tadqiqot ishi alohida o‘rin tutadi. Lekin «Ana tili hám oqıw sawatlılıǵı» darsliklarida nazariy ma‘lumotdan oldin mashq kelgan holatlar juda kam. Buning ustiga induktiv, u bilan bog‘liq ravishda tadqiq etish (izlanish) metodi til birligining talaffuzi va imlosiga nisbatan qo‘llash mumkin: o‘quvchilar tilga oid terminlarni kashf eta olmaydilar. Bunday holatlarda tadqiq etishning maqsadi va mohiyati o‘zgaradi. S.V.Abramova tadqiq etish metodini qo‘llashdan maqsad o‘quvchilarga til qonun-qoidalarini kashf etishni o‘rgatish emas, til ilmi qay tarzda yaratilgani haqida tushuncha hosil qilish, kelgusidagi tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash deb ko‘rsatadi. Bu fikr terminlarga nisbatan to‘g‘ri aytilgan.

Demak, darsliklarda nazariy ma‘lumot mashqsiz berilgan holatlarda u birinchi bosqichga qo‘shilib, uni yakunlaydi. Masalan:

Sózler tuwra mánisinde de, awıspalı mánide de keledi. Mısalı: Altın júzik. Altın gúz.

Lekin ba‘zan nazariy ma‘lumotning matn orqali tanishilgan til hodisasiga umuman dahli bo‘lmasligi ham mumkin. Masalan, quyidagi nazariy ma‘lumot shu tarzda kiritilgan:

Bir dawıshlı sestıń ózgeriwı menen sózdiń mánisi de ózgeredi.

Mısalı: Tas – tis – tós – tıs. (1-sinf darsligi, 2-qism, 10-bet)



Eslatma tarzida tanishtirib o'tiladigan bunday nazariy ma'lumotlarni mustahkamlashga xojat yo'q, chunki keltirilgan misollar asosida anglatilayotgan til hodisasi o'quvchilarga kuchli ta'sir ko'rsatib, to'g'ridan-to'g'ri uzoq muddatli xotirada saqlanib qoladi.

Berilgan mashq yoki topshiriqni og'zaki yohud yozma bajarish (dastlabki ko'nikma hosil qilish) ikki xil maqsadda berilgan bo'lishi mumkin:

- 1) matn tahlili jarayonida tanishilgan til hodisasini mustahkamlash;
- 2) amalda qo'llash mashq qilinadigan til hodisasi muallimning qo'shimcha izohini talab etganda, ham mashq bajarish, ham izoh tarzida og'zaki nazariy ma'lumot berish.

Nazariy ma'lumotdan oldin yoki keyin mashq (topshiriq) keltirilgan holatlarda u bilan tanishish bosqich sifatida ajratiladi. Mashq avval berilganda, u til hodisasini kuzatish, tahlil qilish, izlanish asosida xulosa chiqarish yakunida nazariy ma'lumot bilan tanishtirish maqsadini ko'zda tutadi. Mashq keyin kelganda uning yordamida nazariy ma'lumotni mustahkamlash maqsadi diqqat markazida bo'ladi. Til birliklari ustidagi izlanishlar bolalarni qiziqtiradi.

Shuni ta'kidlash joizki, nazariy ma'lumot ustida ishlash bosqichi eng murakkab bosqich hisoblanadi. Til birliklari yuzasidan nazariy ma'lumot berilgan holatlarda dars bosqichining maqsadi birinchi navbatda nima o'rganilayotganiga bog'liq. Darsliklardagi nazariy ma'lumotlarni shu nuqtai nazardan uch guruhga ajratishimiz mumkin:

- 1) o'quvchilarni termin-tushuncha bilan tanishtirish;
- 2) til hodisasining tasnifini berish;
- 3) til birliklarining talaffuzi, yozilishi va qo'llanishi haqidagi qoidalar.

Darsliklarda uchala guruhga mansub nazariy ma'lumotlar ajratilgan. Ular shunchaki ajratilmagan, balki «Eslab qoling» degan shart bilan taqdim etilgan, ya'ni o'zlashtirish talab etilgan. Yangi mavzu sifatida o'rganiladigan nazariy ma'lumot tarkibi har xil bo'lgani uchun maqsad ham shularga qarab belgilanadi. Aniqrog'i, maqsadning har xil bo'lishi nazariy ma'lumot orqali nima (termin, ta'rif, tavsif, tasnif yoki til birligining talaffuzi, imlosi, qo'llanishiga oid qoida) o'rganilishiga bog'liq.

Yuqoridagi uch guruh til hodisalariga o'quv yili boshidagi takrorlash ham kelib qo'shiladi. Lekin, shuni ham ta'kidlash lozimki, yangi deb ajratilgan nazariy ma'lumotlar sirasida quyi sinflarda o'rganilganlari ham bor. Masalan, ot so'z turkumining ta'rifi 3-sinfda takror kiritilgan. Aslida aynan bir mavzuni bir necha sinfda takror berish, ayni bir materialni qayta-qayta takrorlash pedagogik jarayonning «uzluksizligini» ta'minlaganday bo'lar, lekin bunday takror va qaytariqlar o'quvchilarning qiziqishiga salbiy ta'sir etmay qolmaydi.

O'quvchilarni termin-tushuncha bilan tanishtirish maqsadini ko'zda tutadigan nazariy ma'lumotlar (ta'rif, tavsif, tasniflar) til hodisasini atash, izohlash, o'zaro aloqadorligini anglatish mazmunida bo'lib, ayrimlarida esa termin va ta'rif; termin, ta'rif va tavsif; til birligi va tavsif; til birligi va qoida va hokazo kombinatsiyalarda bayon qilinadi. Bu materiallarning ba'zilari o'quvchilarga til hodisasining mohiyatini anglash uchun xizmat qiluvchi filologik bilim beradi. Ba'zi topshiriqlarda terminni kashf qilish ko'zda tutiladi, ba'zida til hodisasining qo'llanish holatlari yuzasidan xulosa-qoida chiqarish mo'ljallanadi, ba'zan leksik-grammatik yoki nutqiy mashq bajariladi, ayrim hollarda o'tilgan mavzularni takrorlash mo'ljallanadi.

Nazariy ma'lumot termin bilan tanishtiruvchi ta'rif va tavsivalardan iborat bo'lsa, uni o'rganishga o'quvchilarni qanday qilib qiziqtirish mumkin, degan savol tug'iladi. Ona tili darslarida ta'riflarni o'zlashtirish uchun hech qanday asos yo'q. Lekin o'quvchi biladiki, ta'rif asosida tuzilgan test savollariga javob bera oladigan darajada tayyorgarlik ko'rish, ya'ni ta'rifni ham o'zlashtirish lozim. Bu esa ta'rifni yod olish zarurligini anglatadigan maqsad – natija chizmasini anglatadi.

Ma'lum davrga kelib termin navbatdagi tasnifiy ma'lumotlarning qaysi tushuncha haqida ekanligini bilish, til hodisalarining tabiatini, sathlarning o'zaro aloqadorligini o'rganish uchun zarur bo'ladi. . Bu degan so'z, termin yordamida til hodisasining yangi bir qirradi o'rganiladi, boshqacha aytganda, termin vositachilik qiladi. Masalan, ot terminiga tayangan holda atoqli ot, turdosh ot, son terminiga tayanib tartib son, sanoq son, fe'l termini asosida bo'lishli fe'l, bo'lishsiz fe'l kabi ko'plab terminlar bilan tanishadi. Demak, o'quvchi ayrim terminlarni kelgusida ularga tayangan holda tasnifiy ma'lumotlarni o'rganish uchun zarur bo'lishini bilgan holda o'rganishi maqsad va motiv bilan bog'lanadi.

O'quvchilarning qiziqishlari nuqtai nazaridan qaraganda ona tili darslarida o'rganiladigan termin-tushunchalardan shu ta'lim bosqiqchida foydalanish zaruriyati tug'ilib turadigan holatlardagina ularni eslab qolish o'zini oqlaydi. Masalan, gapning bosh bo'laklari (ega va kesim), gapning ikkinchi darajali bo'laklari (to'ldiruvchi, hol, aniqlovchi) haqidagi ma'lumotlar 3-sinf darsligiga kiritilgan. Lekin ularga matn tahlili jarayonlarida qayta murojaat etilmaydi. Tabiiyki, bunday termin-tushunchalarga o'quvchilarni qiziqtirish qiyin.

Til birliklarining talaffuzi, yozilishi va qo'llanishi haqidagi qoidalar amalda qo'llangani uchun ham ularni o'zlashtirish (eslab qolish) talabi o'zini oqlaydi. Lekin ushbu materiallar ham ikki xil tarzda taqdim etiladi:



bo'ladiki, termin-tushuncha filologik bilimning lingvistik asosi hisoblansa, qoida nutqiy savodxonlikni egallashning lingvistik asosidir.

Xullas, boshlang'ich sinflarda «Ana tili hám oqiw sawatlılıǵı» darsliklari, 4-sinf «Ana tili» darsligi asosida ona tilining qonun-qoidalarini o'rgatish o'ta murakkab jarayon bo'lib, mavjud qiyinchiliklarni samarali va muvaffaqiyatli yengib o'tish uchun har bir bosqichda qamrab olingan til hodisalari, ularga doir nazariy ma'lumot xususiyatlaridan kelib chiqib ma'lum qilinadigan, o'quvchilarda barqaror qiziqish uyg'ota oladigan mazmundagi o'qituvchining kirish so'zi, erishilgan natijalar haqidagi yakuniy so'zi o'ylab chiqilishi kerak.

Адебиятлар:

1. Ana tili hám oqiw sawatlılıǵı. 1-bólim [TEKST]: 1-klass ushin sabaqlıq / Sh.Ábdinazimov, B.Qutlimuratov, Z.Ismaylova, P.Salieva, G. Qutlimuratova. Jańa basılımı– Tashkent: Respublika bilimlendiriw orayı, 2021

2. Ana tili hám oqiw sawatlılıǵı. 2-bólim [TEKST]: 1-klass ushin sabaqlıq / Sh.Ábdinazimov, B.Qutlimuratov, Z.Ismaylova, P.Salieva, G. Qutlimuratova. Jańa basılımı– Tashkent: Respublika bilimlendiriw orayı, 2021; Ana tili hám oqiw sawatlılıǵı 1-bólim [TEKST]: 2-klass ushin sabaqlıq / Sh.Ábdinazimov [hám basqalar.]. – Tashkent: Respublika bilimlendiriw orayı, 2021;

3. Ana tili hám oqiw sawatlılıǵı 2-bólim [TEKST]: 2-klass ushin sabaqlıq / Sh.Ábdinazimov [hám basqalar.]. – Tashkent: Respublika bilimlendiriw orayı, 2021.

4. «Ana tili hám oqiw sawatlılıǵı» 1-bólim. 3-klass ushin sabaqlıq. J.Uspanova, X.Abdijabbarova. – Tashkent. Respublikalıq bilimlendiriw orayı, 2022;

5. «Ana tili hám oqiw sawatlılıǵı» 2-bólim. 3-klass ushin sabaqlıq. J.Uspanova, X.Abdijabbarova. – Tashkent. Respublikalıq bilimlendiriw orayı, 2022. 144 bet

6. Yo'ldoshev R.A., Mirjalolova L.R. Ona tili ta'limida kompetensiyaviy yondashuv. – Toshkent: Fan va texnologiyalar Markazining bosmaxonasi, 2019. – 9–10-betlar. (48 bet)

7. Абрамова С. В. Аспекты учебно-исследовательскрй работы старшекласников по русскому языку // Русский язык в школе. – 2007. № 2. С. 25.

РЕЗИОМЕ

Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda nazariy ma'lumotga qiziqish uyg'otish va boshlang'ich sinflarda «Ana tili hám oqiw sawatlılıǵı» darsliklari, 4-sinf «Ana tili» darsligi asosida ona tilining qonun-qoidalarini o'rgatish masalalari o'rganiladi.

РЕЗИОМЕ

В данной статье рассматриваются вопросы формирования интереса к теоретическим знаниям в начальных классах и преподавания правил родного языка на основе учебников «Родной язык и чтения грамотности» и учебника для 4 класса «Родной язык».

SUMMARY

This article discusses the issues of developing interest in theoretical knowledge in primary school and teaching the rules of the native language based on the textbooks “Native Language and Literacy Reading” and the textbook for grade 4 “Native Language”.